



## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA “ELEKTRON SOG’LIQNI SAQLASH” TIZIMINING ISTIQBOLLARI

**Mirzarahimova Aziza Baxrom qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi. Toshkent, O‘zbekiston. [azizamirzarakhimova@gmail.com](mailto:azizamirzarakhimova@gmail.com)*

*DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss4/a28](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a28)*

### **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarining turli sohalarga kirib kelishi ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgani keng yoritilgan. Sog‘liqni saqlash tizimining elektronlashtirilishda qilinayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar ko‘rib chiqilgan. Horijiy kompaniyalarning internet tezligi bo‘yicha o‘tkazgan test natijalari maqolada o‘z o‘rnini topgan bo‘lib, mahalliy statistik ma‘lumotlar ham keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, elektron sog‘liqni saqlash, Internet, Internet tezligi, davlat xizmatlari, mobil internet.

### **Аннотация**

В данной научной статье отражены положительные изменения, происходящие в результате проникновения информационно-коммуникационных технологий в различные сферы. Обсуждены задачи, которые решаются и должны решаться в цифровизации системы здравоохранения. В статью включены результаты тестов, проведенных зарубежными компаниями на скорость интернета, а также освещены местные статистические данные.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, электронное правительство, электронное здравоохранение, Интернет, скорость интернета, государственные услуги, мобильный интернет.

### **Abstract**

This scientific article reflects the positive changes that occur as a result of the penetration of information and communication technologies into various areas. The tasks that are being solved and should be solved in the digitalization of the healthcare system were discussed. The article includes the results of tests conducted by foreign companies on the speed of the Internet, as well as highlights local statistics.

**Key words:** Digital economy, e-government, e-health, Internet, Internet speed, public services, mobile Internet.

### **Kirish**

Raqamli texnologiyalarni barcha sohalar va insonlarning kundalik hayotiga shiddat bilan kirib borayotganligini butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida kuzatish mumkin. Iqtisodiyotni raqamlashtirish tarmoqlarda tejamkorlik va samaradorlikni ta‘minlashi bugungi kunga kelib yaqqol namoyyon bo‘lmoqda. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar

natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi [1].

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Gulyamov S.S., Ayupov R.X. va Abdullayev M.K.lar o‘zlarining ilmiy maqolalarida “2025 yilga kelib dunyoda raqamli iqtisodiyotning ulushi 23 trln. AQSh dollariga yetadi. Uning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushu hozirgi 17.1 foizdan 24.3 foizga o‘radi, bulutli texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalar soni 58 foizga, sun‘iy intellekt-86 foiz, raqamli katta hajmdagi ma‘lumotlar-80 foizga oshadi. Tarmoq standartlari: 5G standartidagi uyali tarmoqlarning ma‘lumot almashish tezligi 20 Gbit/s ga yetadi, bu 4G standart tarmoqlaridan 4 barabarga yuqori ko‘rsatkichga ega”- deb aytib o‘tganlar [2].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lami respublika iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarida kengayishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy alohalar tobora kengayib bormoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q” deb ta‘kidlagan [3].

### **Tadqiqot metodologiyasi**


Tadqiqot mavzusidan kelib chiqib, mavzu doirasida ilmiy tadqiqot ishini olib borgan xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari o‘rganilib, tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, tahlillarini amalga oshirish uchun statistik tahlil hamda qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida “Elektron hukumat” tizimining o‘rni katta. “Elektron hukumat” tizimi-davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi. [4] Bu borada “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida elektron hukumatga katta katta e‘tibor berilgan. Unga ko‘ra, elektron hukumat imkoniyatlarini yanada kengaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta‘minlash ko‘zda tutilgan. [5]

“Elektron hukumat” tizimini yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etishda ko‘maklashish vazifasida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal ishga tushirilgan. Portal zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish asosida interaktiv davlat xizmatlari olishda foydalanuvchilarning shart-sharoitlarini rivojlantirishva imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan, shu jumladan pullik asosda ko‘rsatiladigan, interaktiv davlat xizmatlarida erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentabrdagi 728-sonli qarorida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi talqini (<https://my.gov.uz>) ishga tushirilgani ma‘lum qilingan. [6] Portal orqali davlat xizmatlaridan foydalanish davlat organlariga murojaat qilganga foydalanuvchilar uchun byurikratik to‘siqlarni qisqartirish va ularni bataraf etishda, davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilishga, foydalanuvchilarning davlat organlari bilan bilan o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirishga katta yordam beradi.

Portalning yangi talqinida foydalanuvchilar barcha davlat xizmatlari bilan yagona identifikatsiya tizimida majburiy avtorizatsiyadan o'tmasdan turib tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bugungi kunda portal o'z foydalanuvchilariga 336 turdagi davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa o'z o'rnida fuqarolarga katta qulayliklar yaratadi. Statistik ma'lumotkarga murojaat qiladigan bo'lsak, albatta davlat xizmatlarida on-line rejimda foydalana olish fuqarolarga katta qulayliklar yaratadi. Ayniqsa inson so'ligi bilan bog'liq bo'lgan hollarda bu judayam qo'l keladi. Insonlarni tibbiyot hodimlari ko'rigiga on-line navbatga yozilishi, ularga vaqtlarini, tibbiyot muassasiga borish uchun ketadigan kuchlarini kamroq sarf qilishga yordam beradi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal orqali ariza berish yo'li bilan amalga oshirish mumkin.



**1-rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali berilgan arizalar soni**


*Manba: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida berilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Arizani to'ldirish uchun o'rtacha besh daqiqa vaqt ketadi. Buning uchun my.gov.uz saytiga kiriladi bosh sahifadan ijtimoiy himoya sohasiga o'tib, u yerdan shifokor qabuliga yozilish kategoriyasi tanlanadi. Bu kategoriya qanday ishlaydi?

1. Ariza beruvchi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida avtorizatsiya qiladi va so'rov yuboradi;
2. Mavjud ro'yxatdan tibbiy muassasani tanlaydi yoki filtr yordamida shifokorni tanlaydi. Tanlashvaqtida "Yozilish" tugmasini bosish kerak;
3. Bo'sh talon tanlanib "Yozilish" tugmasi bosiladi;
4. Olingan talo'n raqami chop etiladi;
5. Tanlangan vaqt uchun tibbiy muassasaga borib, shifokor qabulidan o'tish mumkin bo'ladi.

Irlandiyaning Ookla kompaniyasi Speedtest.net servisi 2021 yil yanvar oyi natijalariga oid yangi ma'lumotlarni e'lon qilgan. Ookla kompaniyasi Internet tarmoqlarini, ilova va texnologiyalarini sinov va test o'tkazuvchi jahondagi yetakchi kompaniyalardan biri bo'lib, u internet tezligini test o'tkazuvchi Speedtest portalining ixtirochisi. Speedtest portalida har yili foydalanuvchilar tomonidan 10 milliarddan ortiq testlar o'tkaziladi. Shu sababli kompaniya dunyo miqiyosida tarmoqlarning ishlab chiqish quvvati, sifati va ommabopligi haqida batafsil va noyob ma'lumotlarga ega. Kompaniyaning 2021 yil yanvar oyi ma'lumotlariga ko'ra, aniqlangan Internet tezligi bo'yicha O'zbekiston umumiy reytingida ikkita pozitsiya ko'tarilib, 94- pog'onani egallagan, yuklash bo'yicha tezligi esa 34.62 Mbit/s

ni tashkil etgan. Mobil internet tezligi bo‘yicha ham ijobiy ko‘rsatkich qayt etilgan, yani 2021 yil yanvar oyi natijalariga ko‘ra O‘zbekiston yana ikkita pog‘onaga ko‘tarilib, hozirgi kunda 128-o‘rinni egallamoqda, mobil internet tezligi esa 12.94 Mbit/s ni tashkil etadi.



**2-rasm. Jami Internetdan foydalanuvchilar soni**

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi saytida berilgan ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Internet tezligi o‘shishi bilan birga jami internetdan foydalanuvchilar soni ham oshib bormoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra o‘tgan olti yil davomida respublikada jami Internetdan foydalanuvchilar soni 12.5 millionga ko‘paygan. [8]

Internet tezligini va internetdan foydalanuvchilar soning o‘shishi sohalarni elektronlashtirishga katta yordam beradi. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “sog‘liqni saqlash, bunda tibbiyot sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyaridankeng foydalanish va elektron xizmatlarni taqdim etishni hisobga olgan holda milliy integratsiyalashgan axborot tizimini joriy etish” elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Inson sog‘ligiga a‘loqador sohani, ya‘ni tibbiyotni elektronlashtirish bugungi kunda davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida bu sohada ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Stetegiyaga muvofiq sog‘liqni saqlash muassasalarini yuqori tezlikdagi ma‘lumotlarni uzatish tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. [3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimlarini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlarin va ma‘lumotlar bazalari majmuini yaratish alohida belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimi - bu axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan sog‘liqni saqlash tizimida foydalanish: bemorlarni davolash uchun, tibbiyot hodimlarini o‘qitish uchun, bemorlardagi kasalliklarni aniqlash uchun, tibbiy masalalarning yechimini topish va jamoat salomatligi tendensiyalarini monitoring qilishga yordam beradi. [9]

“Elektron sog‘liqni saqlash” tizimi joriy qilinishi bilan shifokorlar tomonidan ish vaqtida ko‘proq bemorlarga maslahatlarni, yordamlarni bera olish, zarur hollarda tibbiyot

varaqaalariga murojaat qilmagan holda bemorlarning kasallik tarixi bilan tanishish, masofadan turib kerakli maslahatlarini bera olish kabi ko‘plab boshqa imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Bemorlar esa shifokor ko‘rigiga on-line navbatga turib, navbatlari kelganiga shifokor ko‘rigiga kirishlari, shifokor tavsiya qilgan dori vositalari ro‘yxatini on-line olishlari, tahlillar javoblarini olish uchun shifoxona yoki oilaviy poliklinikalarga bormagan holda shifokorga on-line murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi. “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimi insonlarga ko‘plab qulayliklar yaratadi.

“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasida bemorlarning sog‘ligi va ularni barcha tibbiyot muassasalarida davolash uchun umumiy ma‘lumotlarni shakllantirish va saqlashga mo‘jallangan “Yagona elektron tibbiy karta” tizimini, “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” namunaviy axborot tizimlarini hududlarda joriy etish chora-tadbirlarining amalga oshirish bosqichlari ko‘rsatilgan. [3]

### **Xulosa va takliflar**

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli sayi harakatlarga qaramay ba‘zi muammolar ochiqlicha qolmoqda. Bunga misol chekka huquqlarda tibbiyot muassasalarini to‘liq kerakli texnika bilan ta‘minlanmaganligi, internet tarmog‘ini yaxshi ishlamasligi, tibbiyot muassasalarining internet tarmog‘i bilan ulanganlik holati talab darajasida emasligi. Kerakli texnika bilan ta‘minlangan, internet tarmog‘iga ulangan tibbiyot muassasalarida esa tibbiyot hodimlarining foydalana olish darajasi pastligi ko‘p muammolarga sabab bo‘ladi. Bu borada Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutining “Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashi boshqarish” kafedrasida “Sog‘liqni saqlash tizimi raxbar xodimlari uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” mavzusida o‘quv kursi tashkil etilgan. Ushbu o‘quv kursini tamomlagach, sog‘liqni saqlash raxbar hodimlari 36 soatli sertifikatga ega bo‘lishadi va o‘zlarining ish joylariga olgan bilimlarini qo‘lamlashlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday o‘quv kurslarini tashkil qilishning sababi “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimini rivojlantirishda kadrlar masalasi juda ham muhim o‘rin tutadi. Sifatli xizmat ko‘rsatish, kerakli texnologiyalardan foydalanish uchun nafaqat bemorlar, balki tibbiyot hodimlari ham zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan mukammal foydalana olishlari muhimdir. Buning uchun nafaqat o‘z faoliyatini olib borayotgan tibbiyot hodimlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalarga o‘qitish, balki maktablardan boshlab axborot kommunikatsion texnologiyalarini chuqur bilim berish talab etiladi. Tibbiyot oliygohlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari faniga katta e‘tibor bergan holda bo‘lajak soha hodimlarini o‘qitish, o‘z faoliyatini olib borayotgan soha va‘killariga malaka oshirish orqali axborot-kommunikatsion texnologiyalari fanini chuqur o‘qish/o‘rgatish ushbu sohani rivojlanishiga katta yordam berishiga ishonamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari qisqa yul. <https://yuz.uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyot-sari-qisqa-yo'l>
2. “Raqamli iqtisodiyot- kadrlar tayyorlashning dolzarb yunaliishlari” Gulyamov S.C., Aюпов P.X., Abdullaev M.K. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2020 yil
3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligidagi “Tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish” masalalari bo‘yicha

22 sentabr 2020-yilda o‘tkazilgan videoselekt yig‘ilishi” Xalq so‘zi gazetasi 23 sentabr 2020 yil, №201 (7703)

4. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonuni 9 dekabr 2015 yil, O‘RQ-395 son

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni 5 oktabr 2020 yil, PF-6079

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori 15 sentabr 2017 yil, 728-son

7. [www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz) - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining sayti

8. <https://mitc.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi sayti

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5590-sonli farmonida 7dekabr 2018-yil, PF-5590-son

10. “Основные сведения о цифровых системах здравоохранения” - <https://www.euro.who.in> 5.02.2019г.

11. «Цифровое здравоохранение: преобразование системы медицинского обслуживания и решение его доступности» - <https://www.euro.who.in> 9.09.2020г.

12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi sayti